



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonun ijrosi haqida

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida" 2023-yil 24-maydag'i O'RQ-844-son Qonunining ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlikning ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhi (D.Kenjayev)ga:

ta'lim tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy oqibatlari borasida o'quvchi-yoshlar orasida profilaktik ishlar olib borilishini tashkil etish;

ta'lim muassasalari va tashkilotlari hududida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilmaslik, ta'lim muassasasi pedagogik jamoasiga o'quvchilar bilan ishlashda ular ongida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy oqibati, profilaktiki masalalari bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'lim tashkilotlari uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirop etish;

ta'lim muassasalari va tashkilotlari hududidan to'g'ri chiziq bo'ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida (bundan savdo obyekti umumiy savdo maydoni ming kvadrat metrdan ortiq bo'lган savdo majmualarining, bozorlarning hududida va yarmarka pavilonlarida joylashgan hollar mustasno) alkogol va tamaki mahsulotlari savdosiga umuman yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish masalalari ustidan nazorat o'rnatishni amalga oshirish;

mazkur masalada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, o'quvchilar orasida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning oldini olish borasida Birlashgan

Millatlar Tashkilotining UNICEF va UNESCO hamda boshqa mutasaddi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati bilan barcha xodimlarni tanishtirish;

umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, Barkamol avlod bolalar maktabi hududidan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida alkagol va tamaki mahsulotlari savdosiga umuman yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlarida alkagol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishga umuman yo‘l qo‘ymaslik va uning salbiy oqibatlari borasida o‘quvchi-yoshlar orasida profilaktik ishlarni olib borish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlari pedagogik jamoasi tomonidan o‘quvchilar ongida alkagol va tamaki mahsulotini iste’mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish va doimiy ravishda profilaktik tadbirlar o‘tkazish vazifalar yuklatilsin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh,
2023-yil “ 1 ” - iyundagi,
144 - son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “ 1 ” - iyundagi
144 - son buyrug‘iga
ilova

**O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining
tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuni
ijrosini ta’minlash bo‘yicha vazirlik ishchi guruhi
TARKIBI**

1.	D.Kenjayev	Vaziri o‘rinbosari, tashkiliy qo‘mita raisi
2.	D.Ermatov	Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
3.	D.Sobirova	Jamoatchilik va OAV bilan bilan ishslash boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
4.	F.Zaripov	Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo
5.	E.Axmadaliyev	Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo
6.	M.Nazarova	Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo
7.	Lavozimi bo‘yicha	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosari, a’zo